

**Buriyeva Feruza Murodillayevna**

*Samarqand viloyati Kattaqo'rg'on tumani 26-maktabning*

*Ijodiy va madaniy ishlar bo'yicha targ'ibotchisi*

**Annotatsiya:** She'riyat — ma'naviy hayotimizning ajralmas ruhi, komil insonlarning yo'ldoshi. Shunday ekan, uni o'qish ham ma'naviy insonning vazifasiga kiradi. Bundan endi hamma she'r o'qishi shart degan ma'no kelib chiqmasligi kerak. Umrini ma'no bilan to'ldirishni istagan inson she'r o'qiydi. Ma'naviyat degani ham aslida umrni ma'no bilan to'ldirishdir.

**Kalit so'zlar:** She'riyat, qalb, go'zallik, adabiyot, inson, ma'naviyat.

**Аннотация:** Поэзия – неразлучная душа нашей духовной жизни, спутница совершенных людей. Поэтому читать ее — это еще и обязанность духовного человека. Это не должно означать, что все должны читать стихи. Человек, который хочет наполнить свою жизнь смыслом, читает стихи. Разве духовность также не связана с наполнением жизни смыслом?

**Ключевые слова:** Поэзия, душа, красота, литература, человек, духовность.

**Annotation:** Poetry is an irreconcilable dusha nashey duhovnoy jizni, sputnitsa sovershennykh lyudey. Poetomu chitat ee — eto eshche i obyazannost dukhovnogo chiloveka. Eto ne doljno oznachat, chto vse doljny quote verse. A man who wants to fill his life with meaning reads the verse. Razve dukhovnost takje ne svyazana s napolneniem jizni smyslom?

**Key words:** Poetry, shower, beauty, literature, human, spirituality.

## KIRISH

Zamonaaviy she'riyatimizda, agar XX asr, xususan, sho'ro davri shoirlarining ko'p tomlik kitoblarini olib varaqlaganingizda tuyg'uga to'la she'rlar ozligini ko'rasiz. Ko'proq davrning ijtimoiy tomonlari aks etgan, o'sha zamon majburiyatlari bilan yozilgan she'rlar. Bu singari she'rlar vaqt o'tishi bilan o'zining aktualligini yo'qotib boraveradi. Masalan, Oybek 22 jildli asarlarida, aniqrog'i, shoirning she'rlari jamlangan 2-jildida tuyg'ularga qurilgan she'rlar sanoqli. Bu hol o'sha davrda yashagan barcha shoirlarda mavjud. Hamma zamonlarda ham she'riyat haqida bahs-munozaralar bo'lgan, she'riyatning ma'lum qirralari o'zgarib turgan. Qayta qurish davri yillarini eslasak, o'zbek she'riyati butunligicha ijtimoiylik xastaligiga chalingan edi. Mana endi mustaqillik sharofati tufayli, she'riyatdagi bu talablarni tag-tomiri bilan uzib tashlash jarayoni boshlandi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

She'r — ilohiy ne'mat deya e'tirof etiladi. Buning azaliy va abadiyligi ham barchaga ma'lum. She'riyat qadimdan, hali turog'u qofiyalar haqida tushunchalar

bo'lmagan davrda ham, eng ibtidoiy zamonlarda ham mavjud bo'lgan. She'r hamisha inson tuyg'usi asosida yaratiladi. Sobiq sho'ro davrida she'riyatdan, birinchi navbatda, ijtimoiylik talab qilinardi. Ijtimoiylik — bu doim jamiyatdagi muammolar yoki davlatchilik talablari bilan bog'liq hodisa.

### She'riyat

Qalbmida yonguvchi o'tsan, she'riyat

Dilimda o'chmagan shamsan, she'riyat

Ko'nglim ko'targuvchi kuysan, she'riyat,

Qalbmimdagi nurim - sensan, she'riyat.

Qalamim tebratib yozaman she'rlar,

Kuylagayman mudom sening nomingni.

Har dam seni deya qo'limda qalam,

Yuragimda jo'sh urgan mangusan, she'riyat

Bundan yuz-ming yillar oldin yozilgan she'rlarda, birinchi galda shoir o'z tuyg'ulari bilan muxlis qalbini to'lqinlantirgan bo'lsa, yana yuz-ming yil keyin ham shu tuyg'ular o'quvchi yuragini hayajonga soladi va mana shu xususiyat bilan she'r she'rliğini saqlab qoladi.

Zamonaviy she'riyatimizda, agar XX asr, xususan, sho'ro davri shoirlarining ko'p tomlik kitoblarini olib varaqlaganimizda tuyg'uga to'la she'rlar ozligini ko'ramiz. Ko'proq davrning ijtimoiy tomonlari aks etgan, o'sha zamon majburiyatlari bilan yozilgan she'rlar. Bu singari she'rlar vaqt o'tishi bilan o'zining aktualligini yo'qotib boraveradi. Masalan, Oybek 22 jildli asarlarida, aniqrog'i, shoirning she'rlari jamlangan 2-jildida tuyg'ularga qurilgan she'rlar sanoqli.

Hamma zamonlarda ham she'riyat haqida bahs-munozaralar bo'lgan, she'riyatning ma'lum qirralari o'zgarib turgan. Qayta qurish davri yillarini eslasak, o'zbek she'riyati butunligicha ijtimoiylik xastaligiga chalingan edi. To'g'ri, bu davr talabi edi. Mana endi mustaqillik sharofati tufayli, she'riyatdagi bu talablarni tagtomiri bilan uzib tashlash jarayoni boshlandi.

Yuragi go'zal bo'lishini istagan inson adabiyotga mehr qo'yadi. Birov she'riyatga, boshqa birov narsaga ixlosmand. Bizda hozir she'riyat ma'lum ma'noda chetga chiqib qolganday ko'rinadi, Biroq quyosh, oy bor ekan, yulduzlar bor eqan, she'riyat yo'qolmaydi.

She'riyat, adabiyot ma'naviy hayotimizning bir bo'lagi. She'rda ham hayot, inson taqdiri mujassam. Ayrim kitobxonlar bor: she'rni tavsiflashni, mohiyatini bilishmaydi, faqat o'qish, yodlash bilan kifoyalanishadi. Bunday to'tiqushlik bilan ma'naviy boylik orttirish mumkinmi?

— Asl she'r sahna yoki maydonga chiqib o'qiladigan deklamatsiya, shiorlardan iborat matn emas. Bu yolg'iz qolganingda, ko'ngling nimalarnidir qo'msaganda ma'naviy quvvat va insoniy his bag'ishlaydigan bir mo'jiza. Asl she'r Allohning ne'mati. Shuning uchun ham inson ko'pincha unutilgan tuyg'ularini sog'inganda, ularni

yana qaytadan qalbida uyg'otishni istaganida yo qismat chigalliklariga javob izlaganda kitob titkilab yaxshi she'rlarni topib o'qiydi. Haqiqatan ham, she'rni tushunish hammaga ham nasib qilavermaydi.

She'riyat — ma'naviy hayotimizning ajralmas ruhi, komil insonlarning yo'ldoshi. Shunday ekan, uni o'qish ham ma'naviy insonning vazifasiga kiradi. Bundan endi hamma she'r o'qishi shart degan ma'no kelib chiqmasligi kerak. Umrini ma'no bilan to'ldirishni istagan inson she'r o'qiydi. Ma'naviyat degani ham aslida umrni ma'no bilan to'ldirish emasmi? Hayotiy fojialar ta'sirida ham kitobga mehr uyg'onishi mumkin. Biroq kitob, she'r, bu eng avvalo, yurak tarbiyasi. Yurak madaniyati. Yurak nur taratgan she'rda hayot bor, qismat bor, insoniyat mezoni bor. Butun his-tuyg'ular yurakda uyg'onadi, keyin butun vujudimizga o'tadi. Shu ma'noda maktablarda adabiyot o'qituvchilari adabiyot darsini yurakni tarbiya qilish asnosida, ya'ni she'rni sevishga o'rgatishsa, shu jarayonda o'quvchilarning yuragida hayotga muhabbatni uyg'ota olishsa, yaxshi ish bo'lardi. Chunki jamiyatning kelajagi, ravnaqi ham hozirgi yoshlarning tarbiyasi bilan bog'liq.

Hozirda maktabdagi adabiyot darsliklari vatan haqidagi she'rlar bilan chegaralanib qolgan. To'g'ri, har bir odam vatanparvar bo'lishi, avvalo, uning insoniy burchi, biroq hayot, tabiat go'zalligi, inson umriga daxldor bo'lgan boshqa turmush manzaralaridan ham bahramand bo'lishsa, o'quvchilarning dunyoqarashi kengayib, hayotni teranroq o'rganishadi.

Shoir — ruhan ozod qush. Hurfikrliligi va erkinlikka topinishining boisi ham shundamikan. Hozirda shoir ko'p. Ammo she'rlar kam. Xat-savodi yo'q odam ham to'rtta so'zni birlashtirib, she'r yozdim deydi. Qofiyabozlik — shoirga yarashmaydigan katta illat.

Shoir, birinchidan, shaxs bo'lishi kerak. U insonning mavjudligini, uning tabiatini asrashga, himoya qilishga qodir shaxs bo'lishi kerak. Bugun dunyo jiddiy o'zgardi. Bugun qo'lga qalam olishni emas, qo'lga qurol olishni istaydigan odamlar ko'paymoqda. Asl shoir o'z fikr-zikri bilan ozodlikni xohlaydi. Insoniyatni asrab qolishga, uning ruhiyatini o'stirishga xizmat qiladi. Bu borada undagi vatanparvarlik, mehr-oqibat, insoniylik kabi yetuk fazilatlar tashviqot vazifasini o'taydi.

Bolalikdan she'r yozishga urinib, yondaftarcha tutgan yoki ichki kechinmalarini kundaligi bilan sirlashgan insonlar ko'p. Ayni shu davrda o'quvchi qalamini sayqallab, chinakam ijod olami sari yetaklaydigan va rag'batlantiradigan yo'lboshchiga ehtiyoj sezadi. Yoshlarni kitobxonlikka jalb etish, ularning iqtidorini yuzaga chiqarish va ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishga davlat siyosati darajasida ahamiyat qaratilgani bejiz emas. Prezidentimizning 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoniga binoan maktablarda ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchi lavozimi joriy etildi.

Mazkur lavozimga taniqli shoir, yozuvchi, jurnalist va boshqa ijodkorlar tayinlandi. Targ'ibotchilar maktabga o'zgacha ijodiy ruh olib kirdi.

**"Jannatmakon O'zbekiston"**

Atrof rang barang jilov sochmoqda

Insonlari mehnatkash tolmay hormoqda

Juda go'zal o'lka, serquyosh olam

Momo, buvilari duo qilmoqda

Jannatmakon xo'shro'y O'ZBEKISTONDA

Kelajak avlod ixtiro bilan

Vatan ravnaqi yuksak etmoqda

Prezident bobom tinmay harakatda

Tarixsiz kelajak yo'q deb aytmoqda

Jannatmakon xo'shro'y O'ZBEKISTONDA

Navoiy, Boburdek shoir bo'laylik

Temur, To'marisdek polvon bo'laylik

Nodira, Uvaysiy singari biz ham

Tarix kitobidan o'rin olaylik

Jannatmakon xo'shro'y O'ZBEKISTONDA

O'quvchilar orasida she'riyatga, hikoya va ertak yozishga qiziqadiganlari ko'p. Bunday o'quvchilarga ko'proq e'tibor va turtki kerak.

**XULOSA**

Respublikamizdagi jami targ'ibotchilar har bir maktabdan yiliga o'n nafardan ijodkor o'quvchini yetishtirsa, bu respublika bo'yicha yuz ming nafarni tashkil etadi. Bordi-yu o'sha ijodkor o'quvchilarning har birining o'rtacha o'n nafardan ortig'i bo'lsa, unda bir million bolaning ma'naviy dunyoqarashi o'zgargan bo'ladi. Ijodiy-madaniy masalalar bo'yicha targ'ibotchining vazifasi — yosh avlodni ma'nan barkamol etib tarbiyalash, maktab o'qituvchilari va faol o'quvchilarining ijodiy ishlarini keng jamoatchilikka yetkazishga ko'maklashish, turli xildagi viktorinalar, mushoiralar, adabiy kechalar, qiziqarli darslar, kitobxonlik va she'rxonlik musobaqalarini tashkil etish, maktab o'qituvchilari va faol o'quvchilarni jalb etib, gazetalar chop etish yoki o'quv maskanlarining elektron saytida maktab hayotidan qiziqarli maqolalar chiqarib borishdan iborat.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

Ҳожиєв Р.Б., Норбоева Д.О. (2021) Баркамол авлодни тарбиялаш – мамлакатимизда амалга оширилаётган демократик ислохатларнинг устувор йўналишлари. Фалсафа ва ҳуқуқ, №2. 128-131-б.

2. Ҳожиёв Р.Б., Норбоева Д.О. (2021) Ёшлар ижтимоий фаоллигини ривожлантириш концепциялари. “Муғаллим ҳам узликсиз билимдендирў”. №3(2), 4-11-б.
3. Ҳожиёв Р.Б., Норбоева Д.О. (2021) Ёшларнинг ижтимоий катлам сифатида мавжудлигининг онтологик асоси. “Муғаллим ҳам узликсиз билимдендирў”. №3(2), 155-159-б
4. Ҳожиёв Р.Б., Норбоева Д.О. (2021) Ёшлар ижтимоий ҳаётнинг когнитив асослари. “Academic Research in Educational Sciences” № 2(2), 544-555-б.
5. Икрамов Р.А., Ҳожиёв Р.Б. (2020). Воспитание гармонично развитого поколения является приоритетом государственной молодежной политики. Вестник науки и образования. № (92). Част 3. С. 88-90.
6. R.V.Hojiyev, G.V.Xolmo'minov, M.L.Sharipov (2020) Raising a harmoniously developed generation is a priority of democratic reforms in Uzbekistan. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Volume 8. Number 5. pp-1-3.
7. Ҳожиёв Р.Б., Норбоева Д.О. (2021) Когнитивные основы молодежной социальной жизни. “Инновации в технологиях и образовании” Сборник статей участников XIV Международной научно-практической конференции Том. 2 (Болгария), С. 45-54.